ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

KATTAQO‘RG‘ON ADABIY MUHITIDA NOQISNING O‘RNI

Rustamova Jasmina Jamshid qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada XIX–XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Kattaqo‘rg‘onlik shoiri Abduqodir Noqis hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Unda shoirning tahsil olgan madrasalari, ustozlari, adabiy muhitdagi o‘rni, she’riy merosi, ayniqsa, g‘azal va muxammaslaridagi ijtimoiy-ma’rifiy mazmun tahlil etiladi. Noqis ijodida Alisher Navoiy va Muqimiy an’analari davom ettirilgani ilmiy asosda yoritilgan. Ishda shoirning tojik va o‘zbek tillarida yozgan she’rlari badiiy va uslubiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Abduqodir Noqis, Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti, muxammas va g‘azal, Navoiy va Muqimiy an’analari, turkiy-tojik she’riyati.*

Аннотация: *Статья посвящена жизни и творчеству поэта Абдукодира Нокиса, жившего и творившего в начале XIX века. Анализируются медресе поэта, учителя, место в литературной среде, поэтическое наследие, особенности социально-просветительского содержания его газелей и мухаммасов. Научно освещается продолжение традиций Алишера Навои и Мукими в творчестве Нокиса. В работе анализируются стихотворения поэта, написанные на таджикском и узбекском языках, с художественно-методической точки зрения.*

Ключевые слова: *Абдукадир Накис, литературная среда Каттакургана, мухаммы и газели, традиции Навои и Мукими, тюрко-таджикская поэзия.*

Annotation: The article is devoted to the life and work of the poet Abdukodir Noqis, who lived and worked in the early 19th century. It analyzes the poet's madrasas, teachers, place in the literary environment, poetic heritage, especially the socio-enlightenment content of his ghazals and muhammas. The continuation of the traditions of Alisher Navoi and Mukimiy in the work of Noqis is scientifically highlighted. The work analyzes the poet's poems written in Tajik and Uzbek from an artistic and methodological perspective.

Key words: Abdukadir Naqis, literary environment of Kattakurgan, muhammas and ghazal, traditions of Navoi and Mukimi, Turkic-Tajik poetry.

Noqis Kattaqo‘rg‘onning yetuk ijodkorlari avlodidandir. Uning ijodi Dilfor, Volida kabi shoirlar hayotining so‘nggi yillariga, Mirzo va Axqarlar ijodining kamolga yetgan davriga to‘g‘ri keladi. Noqis 1860-yillarda Kattaqo‘rg‘on shahri va uning atrofida ijod qilgan. Shoir Kattaqo‘rg‘on qishlog‘ida dehqon Muhammad Shokir oilasida tug‘ilgan. Muhammad Shokirning Abdulqodir, Abdulmumin va Abdulzoxir ismli uch o‘g‘li bor edi va u farzandlarining o‘qimishli kishilar bo‘lib yetishishini orzu qilardi. Biroq iqtisodiy qiyinchiliklar va o‘sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum uning bu orzusining amalga oshishiga to‘sqinlik qilardi. Shunga qaramay, Muhammad Shokir ko‘p qiyinchiliklar bilan o‘rtancha o‘g‘li Abdulqodirni o‘qitishga muvaffaq bo‘ldi. Abdulqodir dastlab qishloq maktabida savod chiqardi. Keyin shahardagi Nakibxon madrasasida tahsil ola boshladi. Bu davrda Abdulqodir o‘zining ilmga chanqoqligi, qobiliyatliligi va odobliligi bilan kishilarning e’tiborini qozondi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Yosh Abdulqodirning bu xislatlarini payqagan madrasa mudarrisi mulla Axmad uni Buxoroga o‘qishga yuborishni Muhammad Shokirga maslahat beradi. Bo‘lajak shoirning otasi bu maslahatni ma’qul ko‘rib, o‘g‘lini Buxoroga jo‘natadi. Shundan keyin Abdulqodir Buxorodagi Ko‘kaldosh madrasasida tahsilini davom ettiradi. Shoirning Buxorodagi talabalik yillari haqida ba’zi yozma hujjatlar ham mavjud. Masalan, uning ilk hayotiga oid ma’lumotlarni ***"Tazkirai Muxtaram"*** kitobidagi quyidagi gaplardan ham topish mumkin: *"Noqis – taxallusi, olimi nek niyat, xarakteri fozil va komil iste’dod egasi, obro‘li so‘z ustasi, so‘z san’atkorlari orasida e’tiborli shaxs. Xoja mullam Abdulqodir Kattaqo‘rg‘onlikdir. Uning she’rlari xalq orasida mashhur. Darslik kitoblarini o‘qib tugatgach, Samarqand muftiysi mulla Burhonning xizmatiga kirgan, keyin esa o‘zining buyuk amallariga mashg‘ul bo‘lgan."* [3]

Noqis yaxshi olim, iste’dodli, fazilatli so‘z ustasi, so‘z san’atkorlari orasida obro‘li, yetuk ijodkorlardan biri bo‘lmish kattaqo‘rg‘onlik xoja mullam Abdulqodirning taxallusidir. Uning qalamidan chiqqan asarlar hamma orasida shuhrat topgan, so‘zlaridagi nafislik esa uni bilimdonlar orasida e’tiborli qilgan. U mulla Burhoniddin Samarqandiy, Mirab madrasasi muftiysi oldida ko‘p kitoblarni o‘qib, ilm-fanning yetuk donishmandlaridan biriga aylangan.

Natoyiji kalamash baynal xos va al-avom
Dar ishtixor va latoyifi suxanash
Miyoni fozilon soxibi etibor ast.
Xatmi kutubi darsiyamba xidmatim mullo
Burxoniin suduriz muftiii Samarkandy karda, pas
Vujudi xudro ba kibriyati axmari ansuda ast

Quyida keltirilgan namunalar Noqisning yetuk ijodining natijasidir. Tojikiston Fanlar akademiyasining Sharq qo‘lyozmalari va madaniy meros bo‘limi fondida inv. №1005 bilan saqlanayotgan bayozda ***“Marsiya baroi vafoti ustozano Mavlono Burhoniddin Samarqandiy muftiyi Mirarab”[3]*** hamda *“Az baroi marsiyayi vafoti ustozano Mavlono Burhoniddin Samarqandiy muftiyi mudarrisi Mirabi Buxoro bo zammi tarix ba iltimosi in sitam ba ustoz mullo Muhammad Ochildi muta xallus ba Miryo farmuuda”* sarlavhalari ostida berilgan she’rlarga ko‘ra, Noqisning ustozi Burhoniddin Samarqandiy Mirab madrasasining mudarrisi bo‘lgan. Demak, uning qo‘lida tahsil olib, ko‘p kitoblarni o‘qib tugatgan Noqis, mulla Xudoiberdi Berdiyev aytganidek, dastlab Ko‘kaldosh madrasasida o‘qigan bo‘lsa-da, keyinchalik mashhur Mirab madrasasida ham tahsil ko‘rgan.

Noqisning "dog‘man" radifli mashhur muhammasida oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi ishqiy munosabatga ijtimoiy-siyosiy tus berishga harakat qilinadi. Oshiqning ma’shuqasi vasliga voqil bo‘la olmasligiga yorning bevafoligi, nozu istig’nosigina emas, balki zolim falakdan kelgan "ko‘rgiliklar" sabab ekanligini ko‘rsatadi. Shoirning zamondoshlari bu g‘azalni shoir hayotida kechgan bir hayotiy voqea munosabati bilan yozilganligini qayd etishadi. Uch o‘g‘lining onasi Turo oyga uylanungacha shoir bir yosh va go‘zal qizga uylangan ekan. Ammo shoirning baxtli hayoti uzoq davom etmaydi. Uning yosh rafiqasi qozonda yog‘ qaynatayotgan paytda yog‘ olov olib ketadi va yosh ayol o‘zini olov iskanjasidan qutqara olmay vafot etadi. Shoirning bu oilasidan farzand qolmagan. Ammo Noqisdek donishmand alloma va nozik qalb egasini bu voqea qattiq larzaga soladi. Sevimli rafiqasining azob iskanjasida vafot etishi shoir uchun dard ustiga dard bo‘ladi. Natijada u iztirob bilan “Zolim falak firoqingga soldi bandayi parvona meni netay?”, deya faryod urar ekan, dil dardini beixtiyor daftarga yozadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Fikrimizcha, muxammasning “dog‘man” radifi bilan ijodi ham tasodifiy emas. Shoir oxirida “dog‘man”, ya’ni “yonmoqdaman” deyish bilan: “Rafiqamning vujudi yonib kul bo‘lgan bo‘lsa, endi mening yuragim abadiy hasratda dardu g‘am bilan yonib, dog‘ bo‘laveradi”, demoqchi bo‘lgan.

Muqimiy she’rlariga bog‘langan naziralar orqali ikki ijodkor o‘rtasidagi o‘xshashliklarni ko‘rish mumkin. Muqimiy Buxoro madrasalarida ta’lim olgan bo‘lsa-da, mansabdor shaxs sifatida faoliyat yurita olmagan. Vijdoniga qarshi yura olmagan hamda halollik va kamtarlikni nafsidan ustun qo‘ygan shoir, hatto otasidan qolgan hovli-joyini sotib, umrining oxirigacha madrasa hujrasida faqirona hayot kechirgan.

Noqis ijodiy faoliyatining uchinchi davrida yaratilgan she’rlarda zamonadan shikoyat, adolatsizlik va tengsizlik hukm surgan jamiyatni qoralash, zolimlarga nisbatan nafrat, ilojsizlik, ilmsizlik va savodsizlikning chorasini axtarish, ma’rifatni ulug‘lash, orzusidagi baxtli hayotni xayollaridan topishga intilish yetakchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, din peshvolari tanqid qilingan va pand-nasihat ruhdagi she’rlar ham uchraydi.

She’rlarining bunday mazmun kasb etishiga sabab, o‘z davrida Noqis singari savodli, ilmli kishilarning qadr topmaganligi, johillarning esa e’zozda bo‘lganligidir.

Abduqodir Noqis qaysi davrda va qanday ijtimoiy muhitda ijod qilmasin, u turkiy she’riyat piri, buyuk shoir Alisher Navoiyga taqlid qiladi, Navoiy she’rlariga tayanadi. Noqis ijodini birinchi bo‘lib o‘rgangan akademik Vohid Abdullayev 1963-yil 9-fevralda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida Navoiy ijodiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy yig‘ilishda “Kattaqo‘rg‘onda Navoiy izdoshlari” nomli axborotidagi Noqisni Navoiy an’analariga sodiq shoir sifatida talqin etgan edi.[1]

Noqis Navoiy asarlarini mutolaa qilish bilan birga, uning o‘nlab she’rlariga nazira va muxammaslar bog‘laydi. Ayniqsa, uning Navoiyning "xat”, "yig‘larman”, “senga” radifli g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari o‘ziga xos tarzda takrorlanmas edi. Jumladan, “Ko‘rgali husningni, xos zoru mubtalo bo‘ldim senga” matla’si bilan boshlanuvchi...

She’rlar o‘sha davr adabiy muhitida ilm-ma’rifatni qadrlovchi kishi – Abduqodir Noqisning yetishganligini ko‘rsatadi. Bu esa fisq, buzg‘unchilik va xudbinlik kabi illatlar avj olgan davrda kamdan-kam uchraydigan holat edi.

Shoirning ikkinchi davrdagi ijodida ishqiy mavzudagi she’rlar bilan bir qatorda, maktub janriga xos she’rlar ham o‘rin olgan. Jumladan, Noqisning buxorolik do‘sti, atoqli shoiri Sodiq G‘uloniyga bag‘ishlangan maktubi Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar o‘rtasidagi samimiy yozishmalarni eslatadi.

Shuningdek, Noqis bu davrda Muqimiy ijodiga yaqindan yondashib, uning she’rlariga naziralar bog‘laydi hamda muqimiyona sodda, xalqchil she’rlar yozishga erishadi. Xususan, *“dog‘man”, “kesangchi”, “ertaroq”, “sizmusiz”, “qani”* kabi radifli g‘azallariga o‘xshatmalar bog‘lab, nafaqat shakl jihatidan, balki g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratishga muvaffaq bo‘ladi.[4,89]

Jumladan, Muqimiy:

Ko‘zlarga jahon bo‘ldi tangu tor, kesangchi,
Qilmay bu balo muncha meni zor, kesangchi,
Tong otguncha darding bilan bemor, kesangchi,
Yo‘lingda men, ey ko‘zlari xumor, kesangchi,
Jon bo‘lsa fido, bosh mana tayyor, kesangchi.

Noqis:

Asiri halqa-yu zulfung bo‘lay, ey yor, kelsangchi…

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Olim Isomiddin Salohiddinov shoirning 207 ta she'rini zamondoshlari bayozlari tarkibidan topishga muvaffaq bo'ladi. Shulardan 48 tasi (17 muxammas, 26 g'azal, 3 ruboiy, 1 masnaviy va 1 musaddas) o'zbek tilida, 157 tasi (41 muxammas, 99 g'azal, 8 tarix, 3 musaddas, 2 qit'a, 1 tarjiband, 1 maktub, 1 ruboiy, 1 barfiy) tojik tilida, qolgan ikki she'ri esa shir-u shakar shaklida bitilgan. O'zbekcha she'rlari 1215 misrani, tojikcha she'rlari esa 3435 misrani, shir-u shakarlari 32 misrani, jami bo'lib she'riyati 4682 misrani tashkil etadi.[5,56]

Olimning ta'kidiga ko'ra, bu miqdor Noqis ijodiy merosining butun hajmini anglatmaydi. Qo'limizdagi shoir she'rlaridan 20 tadan ziyodrog'ining chala ekanligi hamda asrimizning boshlarida Kattaqo'rg'on, Buxoro va Samarqand atroflarida tuzilgan deyarli hamma bayozlarda uning she'rlaridan yangi-yangi namunalar uchrab turishi, izlanishlar qanchalik davom ettirilsa, Noqis she'rlarini shunchalik ko'p topish mumkinligidan dalolat beradi.

Olim Isomiddin Salohiddinov Noqis she'riyatini ikkiga bo'lib tahlil etadi: 1) davr nuqtai nazaridan; 2) badiiy mahorat yuzasidan. Davr nuqtai nazaridan shoir she'riyatini uchga bo'ladi: 1) talabalik yillarida, ya'ni 1895-yilgacha yaratilgan she'rlari; 2) 1895–1905-yillar oralig'ida yaratilgan (1905-yil 29-yanvarda yozib tugatilgan "Bayozi Valiy"da Noqisning 22 she'ri asos qilib olingan) she'rlari; 3) 1905–1917-yillar oralig'ida yaratilgan she'rlari.[7,98]

Olimning ta'kidiga ko'ra, shoirning ilk ijodiga mansub she'rlari tojik tilida (har bir asari sanalangan) bo'lsa-da, o'zbekcha she'rlariga sana qo'yilmaganligi, shuningdek, mukammal bo'lmaganligini ta'kidlagan.

Abdulqodir Buxorodagi talabalik yillarida madrasa dasturiga ko'ra fors-tojik va arab tillarini puxta o'rgangan, Movarounnahr va Xuroson adabiyotini chuqur o'zlashtirgan. U o'sha yerda Sadriddin Ayniyning "*Esdaliklar*" kitobida (uchinchi qism) ilm-ma'rifat va madaniyatning fidoyi a'zosi sifatida tasvirlangan Sodiq G'ulshoniy kabi ilg'or fikrli hamkasblari qatori badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. O'zbek va tojik klassiklarining eng yaxshi g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Dastlab ularga ergashib, keyinchalik esa mustaqil ijodkor sifatida *"nuqsonli", "yetuk bo'lmagan"* ma'nolarini anglatuvchi "Noqis" so'zini o'ziga taxallus qilib olib, she'rlar yozgan.

Noqis o'z ijodini mumtoz an'analarga asosan muhabbat haqida she'rlar yozishdan boshlagan. Shuningdek, uning ilk ijodida talabalik hayoti bilan bog'liq she'rlar, mudarrislarga bag'ishlangan madhiya va marsiyalar hamda turli munosabatlar bilan yozilgan tarixlar ham katta o'rinni egallaydi. Shuni ta'kidlash joizki, garchi shoirning bu davrda muhabbat mavzusida yaratilgan she'rlari hali o'ziga xos badiiy tasviriy vositalarga boy bo'lmasa-da, o'zining samimiyligi va o'ynoqiligi bilan kishining diqqatini tortadi. Mana uning ana shunday she'rlaridan bir nechta bayt:

Xoh, ey kotil, maro bo teғi abru mekushi,
Yoki basta gardanam bo turrai mu mekushi.
Xoh, dar chohi ғami hijron asiram mekun,
Yo ba tiri har mija bo chashmi jodu mekuy.
Xoh, mesuzi maro dar otashi ishq, ey sanam,
Yo ba poyi rakhshi xud xoy karda, xar su mekushi.
Xoh, e, bo lutfat kuni bo taxti izzat hamnishin,
Yoki, Noqis, ғarchi dar olam du'ogu mekushi.

Baytlarning soddalashtirilgan tarjimasi: Ey qatil, xohlasang qilichdek qoshlaring bilan jonimni ol, Yoki uzun sochlaring bilan bo'g'ib o'ldir. Xohlasang, ayriliq g'ami cho'hida asir qil, Yoki sehrli ko'zlaringning har bir kirpigini o'q qilib ot. Ey sanam, xohlasang, meni ishq o'tida yoqib yubor, Yoki oyog'ing ostida xor qilib topta. Xohlasang, marhamating ila meni yuksaklikka ko'tar, Yoki Noqisni,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

garchi dunyoda duogo‘y bo‘lsa ham, o‘ldir. Ko‘rinib turibdiki, baytlardagi deyarli barcha badiiy tasviriy vositalar – yorning qatl qiluvchiga, qoshning o‘tkir qilichga, sochning dor ipiga, kirpikning o‘qqa, ko‘zning sehrgarga o‘xshatilishi hamda ayriliq cho‘higa tushmoq, ishq o‘tida yonmoq, yor oyog‘i ostida toptalmoq kabi an’anaviy ifodalardir. Lekin she’r o‘zining samimiyligi va o‘ynoqiligi bilan qalbga ta’sir qilib, yoqimli his-tuyg‘ularni uyg‘otadi.[6,65]

Buning sababi shundaki, shoir an’anaviy mavzuda, an’anaviy tasviriy vositalardan foydalanib she’r yozar ekan, bir narsani juda yaxshi o‘ylab topgan. Ya’ni u “har qanday azoblarga solsang ham, ishqdan chekinmayman, seni sevmoqda davom ettiraman” degan mazmunda gapini juda pardali qilib dilbarga yetkazgan. Yorning, sevgining barcha sinovlariga bardosh bera olishini xoh fe’l, xoh “yoki” bog‘lovchisi bilan boshlanuvchi misralar mazmuniga “mekushi” (o‘ldir) radifi nihoyatda ustalik bilan qarama-qarshi qo‘yib ifodalagan. Shuning uchun ham lirik qahramon ishq-muhabbatda sodiqman, deb biror bayt chiqarib aytmasa ham, bu baytlar mazmunidan anglashilib turibdi. O‘quvchini shirin xayollar og‘ushiga olib kiradigan ana shu lirik holat she’r badiiyligini ta’minlagan.

Noqisning talabalik yillarida yozilgan o‘yin-g‘azallaridan yana biri:

Ey masnada husn aro yagona,
Lutfi tu nasibi most yo na?
Husn ast turo fuzuntar az moh,
Boshi tu zarifi in zamona.
Mast ast du chashmi pur-xumorat,
Gavhar zi du la’li dar miyona.
Dar sinayi man fitoda doge,
In ast maro zi tu nishona.
Xol az labakat gazida giram,
Dar g‘oyati nozuki qarona.

61 baytdan iborat ushbu g‘azalning mazmuni ham yuqorida ko‘rib o‘tgan g‘azalimiz kabi sodda – “Ey husn taxtida yagona bo‘lgani (jonon), sening marhamating bizga nasib bo‘ladimi, yo‘qmi? Chiroying to‘lin oynikidan ham ustunroqdir, sen bu zamonaning eng nafis go‘zalisan. Suzilgan ko‘zlaring mast, ikki la’ling orasidagi tishlaring gavhardir. Sendan nishona bo‘lib ko‘ksimga dog‘ tushdi. Lablaringdagi xol shunchalik nozikki, go‘yo o‘pish bilan uni olib bo‘ladigandek”. Tasviriy vositalari ham butunlay original emas. Biroq, shunga qaramay, bu she’r ham yer go‘zalining – insonning nafosatiga qaratilgan samimiy so‘zlar vositasida yaratilganligi uchun go‘zallikni ulug‘lovchi, inson qalbiga rohat baxsh etuvchi ta’sirga ega.

Shoir Noqisning bu kabi she’rlari uning talabalik yillaridayoq ancha mashhur bo‘lgan, she’r ixlosmandlari davralarida o‘qilgan. Shoirning ba’zi hamkasblari esa uning eng yaxshi she’rlariga naziralar bog‘laganlar. Masalan, shoirning madrasadosh do‘sti, keyinchalik taniqli tojik shoiri bo‘lib yetishgan *Sodiq G‘ulshoniy* yuqorida keltirgan Noqisning ikki she’riga ***“Ta’ban al-Noqis”,*** ya’ni Noqis uslubiga moslab quyidagi baytlar bilan boshlanuvchi javob she’rlar bitgan:

Jono, tu barun marav zi xona,
Chashmoni tu ofati zamona.
Yusuf ki ba husn bud mumtoz,
Az husni tu bud u nishona.
Xoh ham chun gul maro bo hasrati ruy mekushi,
Yo manro chun mushk andar hasrati buy mekushi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Noqisning ilk ijodi haqida fikr yuritar ekanmiz, muhim bir narsani e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi: Noqis millati jihatidan o'zbek. U yigirma bir-yigirma ikki yoshgacha aholisi asosan o'zbeklar bo'lgan Kattaqo'rg'onda yashagan. Dastlabki ma'lumotni, she'riyat qoida-qonunlarini kattaqo'rg'onlik mudarrislardan olgan.

Mulla Axmaddan olgan dastlabki ma'lumotlar Noqisning keyingi ijodini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shoirning ustozlariga bag'ishlab yozgan she'rlari ham diqqatga sazovordir. Chunki uning bunday she'rlari shoirning ustozlariga bo'lgan samimiy mehrini ko'rsatishdan tashqari, uning dunyoqarashini, hayot, ilm-fanga bo'lgan munosabatini, o'sha paytlardagi poetik qobiliyati va imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari va madaniy meros bo'limida 1005 raqami bilan saqlanayotgan bayozda shoirning Mirab madrasasi mudarrisi Burhoniddin Samarqandiyga bag'ishlab yozilgan uch she'ri keltirilgan. She'rlar "*Noqis dar madhi afzal-ul-fuzalo va a'lam-ul-ulamo va afqah-ul-fuqaho a'ni makhdumano va ustozano va mavlono Burhoniddin Samarqandiy nazm karda"* degan umumiy sarlavha ostida berilgan.[9,10]

Shoir birinchi she'rida:

Ey majmu'a-ul-ulum va yo ma'dan-ul-kamol,
Dar sarfi sinayi tu buvad jam'i xoli qol.
Fazli tu zatar ast ba rushi zamin zi badr,
Dar rahi ilmu a'lami aqviyu bemisol.
To zindaam ba gardani man tavqi bandagi,
Umedvori xizmati kuyi tu mohu sol.

Mazmuni: "Ey ilmlar majmuasi va kamol konimaning sen. Qalbing kassasiga hamma bilimlar joy bo'la oladi. Sendagi fazilat quyoshdek yer yuzini yoritadi. Ilm sohasida kuchli, ilmlilikda esa tengsizsan. Tirik ekanman, senga qarzdorman. Senga xizmat qilishni oy va yillar davomida orzu qilaman"

kabi baytlar bilan ustozini madh etib, o'zini uning oldida qarzdor ekanligini e'tirof etadi. Shoirning bu she'ri go'yo Alisher Navoiyning: Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish rani ila, Aylamoq bo'lmas aning haqqin ado yuz ganj ila. nasihatini qalbiga jo qilib olgan shogird tomonidan yozilgandek tuyuladi.

Ikkinchi she'rida shoir ustozining dunyoga mashhur bo'lishini orzu qiladi. Uning suhbatdoshlari kamtarin kishilar bo'lishini, hasadchilar esa uning davrasidan uzoqda bo'lishini istaydi. Ustoziga va uning oilasiga sog'-salomatlik tilaydi:

Nomi tu dar nek baxti dar jahon mashhur bod,
Xotirat dar faxmi donish nosiru mansur bod.
Naksh bema'ni nagardad joy bar lavhi dilat,
Harfi noloyiq zi devoni jaholat dur bod.
Dustoni maxfilat boshand Aflotun pisand,
Xosidon az suh'bati yuroni tu maxjur bod.
Dar jahon bodi alam az girdi kuyat nagzarad,
Gulshani mavloyi baxting bo farog'at muza'yan bod.
Badinğoxon dar in gulzor, yorab, kur bod.

Mazmuni: "Yaxshilik bilan noming jahonda mashhur bo'lsin, xotirang ilmni anglashda yordamchi bo'lsin; qalbing devoridan bema'nilik surati joy olmasin. Suhbatdoshlaring Aflotun kabi dono kishilar bo'lsin, hasadgo'ylar sening guruhingdan uzoqlashsin. Kuchang atrofidan g'am-alam shamoli

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

esmasin, hayoting farovonlik va sog‘lik-omonlikda o‘tsin. Shunday qilib, sening noming shogirdlaringning gulshanini bezasin. Yomon niyatlilar ko‘r bo‘lsin”.

“**Nomatbu’**” deb ataluvchi vaznda yozilgan uchinchi g‘azalda shoir ustozini chin dildan madh etadi[2] va:

Be man az tu mujdayi xizmati birassad agar zi rahi qabul,
Na ba dil havuyi Iskandari, na ba fixr af'sari Jam ravom.

(Agar senga xizmat qilishga muyassar bo‘lsam, Iskandar saltanati va Jamshidning yuksakliklarini orzu qilmayman) kabi bayt bilan o‘zining xizmatga tayyor ekanligini bildiradi. Yuqorida qisqacha mazmuni bilan tanishib chiqqan she’rlarimiz bir qancha jihatdan ahamiyatlidir. Chunki, avvalo, bu she’rlar har qanday katta-kichik mansabdorlarga, mulkdorlarga ta’magirlik bilan madhiyalar yozish avj olgan bir davrda, ilm ahli bo‘lgan bir shaxsga qaratilganligi bilan qimmatlidir. Bu narsa Noqisning talabalik davrlaridayoq boylikka, mansabparastlik va ta’magirlik kabi illatlardan yiroq bo‘lganligini, ilmga va ilm ahlining hurmat bilan qaraganligini ko‘rsatadi.

Noqisning ilm-fanga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi va ilm egalariga bo‘lgan ehtiromi uning shu davrda yaratilgan boshqa she’rlarida ham yaqqol ko‘rinib turadi. Masalan, shoirning 1314 hijriy (1896) yilda mudarris Burhoniddin Samarqandiyning vafoti munosabati bilan yozilgan 60 misralik tarkibbandni olaylik. Bu she’rda mudarris Burhoniddin sharafiga aytilgan quyidagi baytlar bor:

Hasrato, jomi murod az gardishi davron shikast,
Xuni dil az dida jastu bar safi mujgon shikast.
Vah, chi xush, dar ayshi ma’ni xotiri osuda dosht,
Az qazo sangi rasidu shishahoyi jon shikast.
Mo asiron bo vusuli xatm a’ud medoshtem,
Bevaqti kard davron dar miyon paymon shikast.
Sheri gurron bud dar maydoni donish, al’iroq,
Darde muxliq za’f kardu qomati darmon shikast. ...
Filhaqeeqat, u z-on muhiti ilm g‘ofil budaem,
Qatrai u az kujo hosil shavad bar mo kunun?
U chu xatti mustaqimi markazi tahqiq bud,
Teri javhardori zehnash bu xallol al-funun.
Kay majoli hasmuro dar nazdi u lat mekushood,
Gar Aflotun nazdi u gashti zi nodoni malul.
Dar miyoni olimon yak dona gavhar budu raft,
Dosht yaksar bar sari mo soyai shafqat minul.
Dar jamii ilm mohira misli u shaxe ki oyo,
Tay namudi qutbi jam’ilmi olam sar ba sar.
Shud g‘arib alfozu istidlol tahqiqi ma’rom,
Gasht atfoli ma’oni bemurabbi darbadar.

Mazmuni: Afsuski, davr aylanishi murod jomini sindirdi. Qalb qoni ko‘zdan oqib, kirpiklar qatoriga tushdi. Ma’no ayshida xotirjamlik naqadar yaxshi edi, ammo qazo toshi kelib jon oynasini sindirdi. Biz asirlar xatmga yetishishni orzu qilar edik, ammo davron bevaqtlik qilib, ahdimizni buzdi. U ilm maydonida sherday bo‘lib, ammo yomon dard uni zaiflashtirdi va darmonni yo‘q qildi. Darhaqiqat, biz shu ilm muhitidan bebahra qolibmiz, endi uning bir qatrasini ham qayerdan topamiz?

U tahqiq markazining to‘g‘ri chizig‘i edi, uning zehni barcha fanlarni yorituvchi gavhar edi. Qaysi raqib uning yonida lat yeyishga jur’at qilardi? Hatto Aflotun ham uning yonida o‘zini nodon his

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

qilardi. Olimlar orasida u noyob gavhar edi, bizga shafqat soyasini solgan edi. Barcha ilmlarda unga teng keladigani yo‘q, u butun olam ilmining qutbini belgilagan edi. Dalillar va mantiqqa asoslangan maqsadni anglash qiyinlashdi, ma’no bolalari yetim qoldi.

Noqis Kattaqo‘rg‘oniyning e’lon qilinmagan she’rlarini o‘rganar ekanmiz, bu merosda g‘oyaviy nuqtai nazardan tasavvufiy ruh ustun ekanligini angladik. Ayniqsa, shoirning fors-tojik tilidagi g‘azallarida tasavvufiy, orifona tafakkur yaqqol namoyon bo‘lgan. Ehtimol, shu sababdan ham sovet tuzumi davrida faoliyat yuritgan olim I. Saloxiddinov bu badiiy asarlarni tadqiqotlariga kiritmagan va nashr ettirmagan bo‘lsa kerak. Ammo u bu she’rlarni to‘plab, asrab, shaxsiy arxivida saqlagan. Olim mustabid tuzum sharoitida bu asarlarning badiiy qimmati haqida gapira olmas, gapirsa ham, uni tinglovchi topilmas edi. U Yaratganning marhamati bilan yurtimiz ozod bo‘lib, nodir milliy boyligimiz namoyon bo‘lishiga umid qilgan.

Darhaqiqat, Noqis ijodining mohiyati ham buyuk salaflari singari ma’rifatdan iborat. Bizning qo‘limizdagi fors-tojik tilida yozilgan o‘nlab she’riy asarlarda Islom ma’rifati ifodasini topgan. Misol tariqasida shulardan bittasiga e’tibor qaratsak (garchi shu birgina g‘azal ham donishmand shoir ijodining butun mohiyatini o‘zida aks ettirsa). G‘azal matla’sida shoir inson uchun Yagona Do‘st bo‘lmish Xudo tomonidan har qanday narsa yuborilsa, bu uning lutfi va marhamati ekanligini bayon etadi.

Matla’dan oldingi baytda shoir: *“Mening rangimning sarg‘ishligi sargardon boshim, bexosil umrim tufayli emas, balki ishqim jazbasining qahrabo rangidandir*”, degan fikrni bildiradi.

Matla’da esa hayotdan maqsadini aniq ifoda etib: *“Ey, nomukammal, nuqsoni ko‘p banda,* – deydi shoir. –Sen yuqorida bayon etgan talablaring har qanday orzular chegarasidan chiqib ketdi. Bu shuni anglatadiki, orzu-havaslarga berilishing “*qo‘ling qaltiraligidan*”, ma’rifat yo‘lida ojizligingdan dalolatdir”. Shoir ma’rifat yo‘lidagi ojizlikni kambag‘al kishilarning orzu-tamanno va havaslarga berilishiga o‘xshatib, badiiy lavha yaratadi. Shu kabi tasavvufiy fikrlar shoirning “Didaro to shab sahar bo yodi vaslat xob nest, Sulb ag‘yorast dardam chuz tuam ijob nest” matla’li g‘azalida ham o‘z ifodasini topgan. Bu mulohazalar yaqin tariximizda Kattaqo‘rg‘onda tasavvuf an’anasi va she’riyati keng rivojlanganidan, bu esa o‘z navbatida shaharda islom madaniyati barqaror bo‘lib, ziyolilar orasida ma’rifiy ruh hukm surganidan dalolat beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘onda yirik va sermahsul adabiy muhit vujudga keldi. Bu adabiy muhit materiallarini o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari o‘zbek adabiyotida xilma-xil ijodiy uslublar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zbek shoirlarining til va janrlardan turlicha foydalanganliklaridan dalolat beradi. Bu muhit vakillari sirasiga Ochiqdiyor Murod Mir, Abdulqodir kiradi.[8,6]

Ijodkorlar o‘z davrlarining ma’rifatparvar shoirlari bilan bir qatorda asarlar yaratib, o‘zbek adabiyotini xalqchil ruhda yozilgan bebaho xazina bilan boyitdilar. Xususan, Noqis Kattaqo‘rg‘oniy ma’rifatparvar shoiri Muhammad Amin Muqimiy ijodidan ta’sirlanib, Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitiga Muqimiy ijodining ruhini olib kirdi. Mir Alisher Navoiy va Noqis Kattaqo‘rg‘oniy XIX-XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillari bo‘lish bilan birga, taraqqiyparvar ruhdagi qalamkashlarning yetishib chiqishi uchun zamin yaratgan ustozlar ham edilar. Jumladan, Mir Alisher Navoiyning ustozlik faoliyati va ijodi keyingi avlod ijodkorlarining yetuk shoir bo‘lib yetishishlariga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Noqis ham o‘z navbatida Pisandiy, Faqiriy, Valiy, Salohiy, Nojiy kabi davrining mashhur ijodkorlari yetishib chiqishiga xizmat qildi. Bu qalamkashlar Noqis ijodidan ma’naviy ozuqa olib, uning she’riyatidagi sodda va xalqchil badiiy shaklni o‘zlashtirdilar. Ularning ijodida Noqis she’rlariga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

yozilgan ko‘plab nazira va payrov g‘azallarni uchratish mumkin. Xulosa shuki, tadqiqotimizni boshlaganimizda nomini tilga olgan, tadqiq etishni niyat qilgan mavzuda salmoqli tadqiqotlar yaratgan olim Isomiddin Saloxiddinov (Salohiy)ning xulosaviy fikrlarini keltirish bilan yakunlamoqchimiz: “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti hamda uning Mir Alisher Navoiy va Noqis kabi yirik namoyandalari adabiyotimiz tarixi darsliklaridan o‘ziga munosib o‘rin egallashi lozim".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Hurriyat” gazetasi, 1917-yi, 5-dekabr.
2. “O'zAS”, Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
3. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2012
4. Izzat Sulton. Asr saboqlari. Toshkent: «O'zAS», 2001, 126 bet.
5. Nojiy. “Devon”, To‘plab nashrga tayyorlovchi Po‘lathoji Muhammadamin o‘g’li Zubaydullayev, Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014, 208 b.
6. Valixo'jayev, B. “Kamoli Xujandiy va Bisoti Samarqandiy she'rlariga doir bir sharh”, Samarqand, 1981.